

Uzbekistan Airways bilan Dubay shahriga sayohat qiling

2022 7 Sentabr

Dunyodagi eng quyoshli shaharlardan biri bu Dubay bo'lib, u yerda yil davomida yoqimli muhit hukm suradi. Dubay o'zining osmono'par binolar bilan mashhur, bunga yorqin misol balandligi 828 metr bo'lgan Burj Xalifa minorasidir. Kechki payt ushbu balandlikdan siz ajoyib manzaralar va sehrli raqs favvoralaridan bahramand bo'lishingiz mumkin.

Uzbekistan Airways aviakompaniyasi bugungi kunda seshanba kunidan tashqari har kuni Toshkent – Dubay – Toshkent yo'nalishi bo'yicha muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirmoqda. Uzbekistan Airways bilan “qumdagi arab mo'jizasi” deb nomlangan shaharga sayohat qiling.

Aviachiptalarni Uzbekistan Airways Sales filialida, aviakompaniya agentlaridan yoki www.uzairways.com rasmiy saytidan 3% chegirma bilan xarid qiling.